Abdullayev Jamshid Djamilovich

TIBBIY XIZMATLAR KO‘RSATISH SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY TAVSIFI, FUQAROVIY HUQUQIY TABIATI VA TASNIFIY MEZONLARI



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

ABDULLAYEV JAMSHID DJAMILOVICH

TIBBIY XIZMATLAR KO‘RSATISH SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY TAVSIFI, FUQAROVIY HUQUQIY TABIATI VA TASNIFIY MEZONLARI

Monografiya

Toshkent – 2024

UO‘K
KBK
A

Abdullayev J.D.

Tibbiy xizmatlar ko‘rsatish shartnomaviy munosabatlarini huquqiy tartibga solishning umumiy tavsifi, fuqaroviy huquqiy tabiati va tasnifiy mezonlari. Monografiya. J.D. Abdullayev. – T: “Dimal” nashriyoti, 2024-y. – 164 b.

Mazkur monografiyada tibbiy xizmatlar ko‘rsatish shartnomaviy munosabatlarini huquqiy tartibga solishning umumiy tavsifi, fuqaroviy huquqiy tabiati va tasnifiy mezonlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Muallif tomonidan tibbiy xizmatlar ko‘rsatish shartnomaviy munosabatlarining paydo bo‘lish tarixi va umumiy tavsifi, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish shartnomaviy munosabatlarini tartibga solishning huquqiy asoslari, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish shartnomaviy munosabatlari tushunchasi, uning huquqiy tabiati va predmeti, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish shartnomasining taraflari va ularning huquq hamda majburiyatlari, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish shartnomasining asosiy va qo‘shimcha shartlari, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish shartnomasi bo‘yicha tibbiy tashkilotning javobgarligi, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish shartnomasi bo‘yicha buyurtmachi(bemor)ning huquq va majburiyatlari, tibbiy xizmatlar ko‘rsatish shartnomasi taraflarining javobgarligini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari tahlil etilib, nazariy tushunchalar ishlab chiqilgan va soha qonunchiligini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Monografiyadan tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar, magistrantlar, o‘qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari, huquqshunos olimlar hamda keng jamoatchilik foydalanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Kengashida ko‘rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan. 2024-yil 29-noyabrdagi 4-sonli bayonnoma.

O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist, yuridik fanlar doktori, professor
M.X.Rustambayevning
umumiy tahriri ostida.

Taqrizchilar:

R.J. Ruziyev – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Fuqarolik huquqiy fanlar” kafedrasi professori, yuridik fanlari doktori, professor

V.R. Topildiyev – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti o‘quv uslubiy boshqarmasi boshlig‘i yuridik fanlari doktori, professor

ISBN 978-9910-0000-0-3

© J.D. Abdullayev, 2024
© “Dimal” nashriyoti, 2024

Ilm egallang: Ilm-sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘izlikda-yo‘ldosh, baxtiyor damlarda-rahbar, qayg‘uli onlarda madadkor, odamlar orasida-zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi quroldir!

KIRISH

Jahon hamjamiyatining globallashuv jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning o‘zgarib borishi hamda integratsiyalashuvi, tibbiyot va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanib borishi bilan o‘ziga xos shartnoma munosabatlarining paydo bo‘lishi fuqarolik muomalasi ishtirokchilari o‘zaro munosabatlarining yangi shakllarini vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sezilarli darajada fuqarolik huquqiy munosabatlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Xususan, mamlakatimizda fuqarolik qonunchiligini bugungi kun talablariga javob beradigan darajada takomillashtirish maqsadida keng qamrovli dasturiy tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Ayni paytda ilmiy-texnika taraqqiyoti tibbiyot sohasida yordamchi reproduktiv texnologiyalar (YoRT)ning paydo bo‘lishi bilan xorijiy mamlakatlarning aksariyat qismida tibbiy xizmat ko‘rsatish xizmatlaridan keng foydalanilmoqda. Xususan, 2023-yilda Sog‘liqni saqlash resurslari va xizmatlarini boshqarish (HRSA) Organ Donorligi Statistikasi transplantatsiya masalasida “Milliy transplantatsiya kutish ro‘yxatidagi erkaklar, ayollar va bolalar soni – 103,223 nafar; har kuni organ transplantatsiyasini kutib o‘lishlar soni – 17 nafar; 2023 yilda – 46,000 nafar transplantatsiya amalga oshirilgan”[1]ligining o‘zi ham fikrimizni yaqqol isbotlaydi. Tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq shartnomaviy munosabatlar dunyoning ayrim davlatlarida huquqiy tartibga solingan, ammo O‘zbekistonda kundalik hayotda mavjudligi sababli milliy qonunchiligimiz va soha amaliyotida joriy qilinishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda tibbiy xizmat ko‘rsatish munosabatlarini shartnomaviy huquqiy jihatidan tartibga solish istiqbollarini tadqiq etish, tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalarini tuzish, o‘zgartirish, bekor qilish, tibbiy

[1] https://www.organdonor.gov/learn/organ-donation-statistics

xizmat ko‘rsatish munosabatlarida uchrayotgan huquqbuzarlik uchun javobgarlik hamda huquqni himoya qilish usullarini takomillashtirish, xalqaro e’tirof etilgan normalarga milliy qonunchilikni moslashtirish, milliy qonunchilikda o‘zining aniq ifodasini topmagan tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomalarining qonuniy asoslarini yaratish masalalari bilan bog‘liq muammolarning ilmiy yechimini topishga qaratilgan ilmiy ishlar olib borilmoqda. Shu sababli tibbiy xizmat ko‘rsatish munosabatlarini shartnomaviy huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalasida ilmiy-nazariy tadqiqot olib borish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Mamlakatimizda fuqarolarning shaxsiy huquq erkinliklarini himoya qilish, sog‘lom oila munosabatlarini saqlab qolish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasi doirasida “Ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlarni aholiga yanada yaqinlashtirish va qulayligini oshirish maqsadida respublika hududlarida tibbiyot klasterlarini tashkil etish”, jamiyatning asosiy bo‘lagi hisoblangan oilaning mustahkam asoslarini yaratish kabi muhim maqsadlar belgilangan. Fanning xususan tibbiyotning rivojlanishi oilaviy munosabatlarda ham qo‘shimcha majburiyatlarni, yangi turda bo‘lgan, amaldagi milliy qonunchiligimiz bilan tartibga solinmagan tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq munosabatlar yo‘nalishi ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini taqazo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 11-martdagi “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 11-maydagi “Inson a’zolari va to‘qimalarining transplantatsiyasi to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2016-yil 21-oktabrdagi PF-4850-son “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Alohida ta’kidlash lozimki, tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq munosabatlar aniq huquqiy normalar bilan tartibga solinmagan. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan omillar mavzuning dolzarbligini belgilaydi, va ayni paytda fuqarolik huquqi sohasida tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasining predmeti va obyektlari doirasini aniqlashga, amaliyotda

ushbu shartnomani qo‘llash va bekor qilish xususiyatlarini o‘rganishga, shuningdek taraflar javobgarligi masalalarini tahlil etishga yo‘naltirilgan kompleks ilmiy-nazariy tadqiqot o‘tkazish hamda huquqiy mexanizmini yanada takomillashtirish zarurligidan dalolat beradi.

MUNDARIJA

Kirish 4

I BOB. TIBBIY XIZMATLAR KO‘RSATISH SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY TAVSIFI

1.1-§. Tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomaviy munosabatlarining huquqiy asoslari 7

1.2-§. Tibbiy xizmat shartnomaviy huquqiy munosabatlarning genezisi 33

1.3-§. Tibbiy xizmatlar ko‘rsatish shartnomalarining qiyosiy huquqiy tahlili 59

II BOB. TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISH BO‘YICHA SHARTNOMALARNING FUQAROVIY HUQUQIY TABIATI, TASNIFIY MEZONLARI

2.1-§. Fuqarolik shartnomalar tizimida tibbiy xizmatlarni ko‘rsatishga oid shartnomalarning huquqiy tabiati 80

2.2-§. Tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha fuqarolik huquqiy shartnomalar tasnifi 101

2.3-§. Tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasining mazmuni va shakli 121

Xulosa 139

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati 141

Abdullayev Jamshid Djamilovich

TIBBIY XIZMATLAR KO‘RSATISH SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY TAVSIFI, FUQAROVIY HUQUQIY TABIATI VA TASNIFIY MEZONLARI

M o n o g r a f i ya

Muharrir: Ibragimova R.Sh.
Texnik muharrir: Jo‘rayeva M.T.

Bosishga ruxsat etildi: 06.12.2024. Buyurtma: №.140. Format 60x90/16
Times New Roman garniturasi bilan raqamli bosma usulida bosildi.
Hajmi 15,5 sh.b.t., 10,79 t.-h.t. Adadi: 100 nusxa.